


QASHQADARYO VILOYATIINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019 yil yanvar)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 706,3 mld. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 19,0 mld. so`mni (o`sish sur`ati 35,6%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 638,9 mld. so`mni (o`sish sur`ati 107,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 48,4 mld. so`mni (o`sish sur`ati 102,7 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning faqat Qarshi shahridan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Shaxrisabz (111,2%), Qarshi (108,5%), G'uzor (106,8%), Qamashi (107,8%) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 35,6 % ni va 19,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 2,7 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 638,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 7,0 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,3 % ga teng.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



Kichik tadbirkorlik
 Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Kitob (99,9 %), Mirishkor (99,9 %), Koson (100,0%), Qamashi (99,9%) va Yakkabog' (99,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 2,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shaxrisabz tumanida (20,3 %), Qarshi shahrida (7,2 %) va G'uzor (7,2%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	19032,7	35,6	687268,9	107,0
G`uzor	258,0	64,1	27799,8	107,5
Dehqonobod	75,9	28,2	34849,3	105,4
Qamashi	60,7	69,3	52537,2	107,9
Qarshi	127,5	121,3	28819,7	108,4
Koson	24,9	41,7	68236,9	105,2
Kitob	46,6	0,0	48852,1	106,9
Mirishkor	34,3	115,1	31887,5	105,0
Muborak	497,5	94,1	20494,4	106,3
Nishon	76,1	37,6	27544,4	105,2
Kasbi	95,0	71,1	29669,9	105,1
Chiroqchi	192,3	89,8	61244,5	105,6
Shaxrisabz	5413,6	192,5	21285,7	100,4
Yakkabog'	68,5	8,1	40426,3	106,6
Qarshi sh	11957,9	25,9	153684,6	111,2
Shaxrisabz sh	103,9	6,0	39936,5	105,3

**Shahar va tumanlar kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar
aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 222,0 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 95,6 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (614,9 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (294,6 ming. so`m) va Mirishkor (275,9 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Qarshi (121,1 ming.so`m), Shaxrisabz (123,3 ming.so`m) va G'uzor (142,1 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	222,0	95,6
G'uzor	142,1	100,4
Dehqonobod	245,6	97,0
Qamashi	200,6	96,9
Qarshi	121,1	98,4
Koson	248,0	98,4
Kitob	190,6	105,5
Mirishkor	275,9	100,8
Muborak	250,2	98,5
Nishon	188,2	97,6
Kasbi	156,7	99,3
Chiroqchi	155,6	100,4
Shaxrisabz	123,3	104,8
Yakkabog'	158,7	105,6
Qarshi sh	614,9	84,8
Shaxrisabz sh	294,6	94,6

Jumladan, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 %ni tashkil etib, 16,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3 % o`sishga erishildi.


QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oyida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 156,7 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,7 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirdorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko`ra, 122,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 77,9 % ni tashkil qilmoqda.


Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarining ulushi 22,1 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	156701,3	101,7	34606,3	67,6	122095,0	118,6
G`uzor	843,7	111,2	0,0	0,0	843,7	111,2
Dehqonobod	340,4	109,3	0,0	0,0	340,4	109,3
Qamashi	1946,0	119,1	0,0	0,0	1946,0	119,1
Qarshi	6882,1	109,5	0,0	0,0	6882,1	109,5
Koson	6995,6	109,0	0,6	0,0	6995,0	109,0
Kitob	7188,3	114,7	0,5	0,0	7187,8	114,7
Mirishkor	2132,6	116,4	0,0	0,0	2132,6	116,4
Muborak	1364,1	40,5	274,0	11,6	1090,1	108,0
Nishon	7317,3	132,3	2,2	0,0	7315,1	132,2
Kasbi	1817,7	91,7	0,	0,0	1817,7	107,0
Chiroqchi	3563,7	106,5	0,0	0,0	3563,7	106,5
Shaxrisabz	1660,0	119,9	26,3	38,7	1633,7	124,1
Yakkabog'	3311,1	113,5	0,0	0,0	3311,0	113,5
Qarshi sh	102569,5	98,1	34269,8	70,8	68299,6	121,7
Shaxrisabz sh	8769,3	116,4	32,9	171,8	8736,5	116,2

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**

Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`atlari Qarshi shahar (98,1 %) , Muborak (40,5%) va Kasbi (91,7%) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (71) 230-83-91